

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020-yil 1-may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbir-korlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonun-chilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

25 649



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

24 216



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)

1 434

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

15 934



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

2 152



Oilaviy korxonona

156



Unitar korxonona

3 846



Xususiy korxonona

40



Aksiyadorlik jamiyati

179




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



xususiy korxonona
birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar i qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020-yil yanvar-aprel oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-aprel oylarida 1 494 tadan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 082 ta, xususiy korxonalar – 102 ta, oilaviy korxonalar – 235 ta, muassasalar – 24 ta va boshqalar – 51 tani tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyatimizda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklariga yaratib berilayotgan shart –sharoitlar faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni muntazam ravishda oshib borishiga asos bo'lib kelmoqda.


Jami faoliyat ko'rsatayotgan
19,9 % ga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




19,6 %
ga oshdi



Mikrofirkmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




20,2 %
ga oshdi



Oilaviy korxonalar




39,1 %
ga oshdi




Oxirgi yillarda xorijiy investorlarga yaratilib berilayotgan qulayliklar najasida faoliyat ko'rsatayotgan **xorijiy kapital ishtirokidagi** korxonalar soni yil sayin oshib borayotganini kuzatishimiz mumkin.



O'tgan yilga nisbatan
17,6 % ga oshdi



Xususiy korxonalar



2019-y.


186

2020-y.

186




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyatimizda sanoat yo'nalishida yaratib berilayotgan shart – sharoitlar faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni muntazam ravishda oshib borishiga asos bo'lib kelmoqda.

Jami faoliyat ko'rsatayotgan


11,6 % ga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




11,6 %
ga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



11,2 %
ga oshdi



Oilaviy korxonalar




32,5 %
ga oshdi



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



O'tgan yilga nisbatan
25,8 % ga oshdi



Xususiy korxonalar



2019-y.

557

2020-y.

562

0,9 % ga oshdi




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyatimizda qurilish faoliyatida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni muntazam ravishda oshib borishiga asos bo'lib kelmoqda.

Jami faoliyat ko'rsatayotgan

22,5 % ga oshdi






Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofimlar

Kichik korxonalar



22,5 % ga oshdi




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



27,0 % ga oshdi




33,3 % ga oshdi



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **2** martaga oshdi



Xususiy korxonalar




23,2 % ga oshdi



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan
25,1 % ga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




25,3 %
ga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




28,2 %
ga oshdi



Oilaviy korxonalar




81,8 %
ga oshdi



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



O'tgan yilga nisbatan
55,3 % ga oshdi




Xususiy korxonalar



2019-y.


2020-y.



6,9 % ga oshdi



Oilaviy korxonalar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-may holatiga ko'ra, 2 152 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 795 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 997 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 672 taga yoki 1,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 235 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121 taga yoki 34,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, 15 934 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 847 taga yoki 121,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 121 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 608 taga yoki 120,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 082 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 038 taga yoki 49,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, 296 tani tashkil etib, ulardan 286 tasi yoki 96,6 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 82 taga yoki 38,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	79	81	100	207	286
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	1	3	17	20
Sanoat	55	54	59	97	122
Qurilish	1	3	4	14	28
Savdo	10	11	17	38	59
Tashish va saqlash	2	0	0	2	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	7	17	23
Axborot va aloqa	0	1	0	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	1	4	6
Boshqa turlar	3	4	9	17	21

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	7 189	8 398	9 307	12 513	15 121
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	817	1 065	1 279	1 627	1 956
Sanoat	1 236	1 439	1 586	2 232	2 482
Qurilish	956	1 078	1 261	1 669	2 119
Savdo	2 024	2 204	2 312	3 317	4 252
Tashish va saqlash	789	892	937	1 111	1 246
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	363	390	458	714	920
Axborot va aloqa	97	117	123	135	172
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	162	195	237	297	357
Boshqa turlar	745	1 018	1 114	1 411	1 617

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	584	746	1305	1997
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	109	105	133	185
Sanoat	171	203	391	518
Qurilish	4	9	12	16
Savdo	86	109	247	449
Tashish va saqlash	7	8	12	20
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	152	232	400	622
Axborot va aloqa	8	6	6	10
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	16	29	36
Boshqa turlar	41	58	75	141

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



32



34



22



57



36




105



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Buxoro viloyati	286	158	128
<i>tumanlar:</i>			
Olot	6	1	5
Buxoro	12	9	3
Vobkent	7	6	1
G'ijduvon	11	6	5
Kogon	24	20	4
Qorak'ol	8	3	5
Qorovulbozor	9	4	5
Peshku	17	5	12
Romitan	10	4	6
Jondor	11	7	4
Shofirkon	9	6	3
Buxoro sh.	147	76	71
Kogon sh.	15	11	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 147 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 51,4 %), Kogon 24 ta (8,4 %), Peshku 17 tani (6,0 %), Kogon sh. 15 ta (5,2 %), Buxoro 12 ta (4,2 %), G'ijduvon va Jondor 11 ta (3,9 %) hamda Romitan tumanlarda 10 tani (3,5 %) tashkil etadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main header features the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. Below the header, there is a navigation menu with options like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is divided into three sections: 'RASMIY STATISTIKA' on the left, a central interactive form, and 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' on the right. The central form is titled 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' and includes a dropdown menu with options: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The form itself has a field for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code) and a 'Qidiruv' (Search) button. The right sidebar contains various useful links such as 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:65 223-83-20**